

BUXGALTERIYA HISOBINING PREDMETI VA OBYEKTALARI

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti

“Buxgalteriya kafedra” assistenti

Qo'ziyeva Maftuna Otabek qizi

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti talabasi

O'rinboyeva Durdona Oybekovna

Annotatsiya. Ushbu maqolada buxgalteriya hisobining predmeti, ya'ni hisob jarayonida qamrab olinadigan iqtisodiy hodisalar va obyektlar, shuningdek uning iqtisodiy faoliyatdagi ahamiyati yoritiladi. Buxgalteriya hisobining bosh maqsadi — korxonada sodir bo'ladigan xo'jalik amaliyotlarini muntazam ravishda qayd qilish, ularni tegishli hujjatlar asosida rasmiylashtirish, tartibga solish va yakuniy ma'lumotlarni boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun tayyor holda taqdim etishdir.

Kalit so'zlar: buxgalteriya hisobi, hujjatlashtirish, tahlil, axborot tizimi, iqtisodiy jarayon, hisobot, muvofiqlik, uzluksizlik.

Kirish. Buxgalteriya hisobi korxonalar, tashkilotlar va turli muassasalarda olib borilib, xo'jalik faoliyatini nazorat qilish hamda uni boshqarish jarayonida muhim axborot manbai vazifasini bajaradi. U ijtimoiy mahsulotning takror ishlab chiqarish jarayonini kuzatish imkonini beradi. Takror ishlab chiqarish esa jamiyatning barcha sohalarini — ishlab chiqarish va noishlab chiqarish tarmoqlarini o'z ichiga oladi. Moddiy ishlab chiqarish sohasiga, ya'ni ishlab chiqarish tarmog'iga, moddiy boyliklar yaratish bilan shug'ullanuvchi sohalar kiradi. Bular qatoriga sanoat, qishloq xo'jaligi, qurilish kabi faoliyat turlari tegishli. Shuningdek, moddiy ne'matlarni ishlab chiqaruvchi subyektlardan ularni iste'molchilarga yetkazib berish bilan shug'ullanuvchi savdo va umumiy ovqatlanish tarmoqlari ham ushbu sohaga kiradi.

Asosiy qism. Ijtimoiy mahsulotni takror ishlab chiqarish jarayoni korxonaning mavjud fondlari — ishlab chiqarish faoliyati uchun zarur bo'lgan moddiy resurslar va pul

mablag'laridan oqilona foydalanish orqali amalga oshiriladi. Turli mulkchilik shakliga ega korxonalarda ushbu mablag'larning shakllanish manbalari ham farq qiladi: davlat korxonalarida — davlat resurslari hisobidan, jamoa korxonalarida — pay badallari asosida, aksiyadorlik jamiyatlarida — aksiyadorlar tomonidan kiritilgan ulushlar orqali, qo'shma korxonalarda esa — muassislarning badallari hisobidan shakllanadi. Ishlab chiqarish, taqsimot, ayirboshlash va iste'mol jarayonlari o'zaro uzluksiz bog'langan bo'lib, korxona fondlarining doimiy aylanishini ta'minlaydi. Shu bois buxgalteriya hisobi ushbu jarayonlarda moddiy boyliklarni yaratishga yo'naltirilgan faoliyatni to'g'ri aks ettiradi, fondlarning holati va ulardan foydalanish bo'yicha boshqaruv uchun zarur bo'lgan axborotni shakllantiradi.

Noishlab chiqarish sohasi esa aholiga turli xizmatlar ko'rsatuvchi tarmoqlardan iborat. Ularga sog'liqni saqlash, ta'lim, madaniyat, davlat boshqaruvi va mudofaa muassasalari kiradi. Ushbu sohada bajariladigan ishlar jamiyat uchun ijtimoiy foydali bo'lishiga qaramay, ular bevosita moddiy ne'mat yaratmaydi, ya'ni ijtimoiy mahsulot ishlab chiqarilmaydi.

Noishlab chiqarish sohasidagi tashkilotlar o'z faoliyatini asosan davlat byudjetidan ajratilgan mablag'lar hisobiga yuritadi. Ularning xo'jalik faoliyatining mohiyati ushbu resurslardan belgilangan funksiyalarni bajarishda samarali foydalanishni ta'minlashdan iborat. Natijada, davlat sektorining noishlab chiqarish tarmoqlarida moddiy ishlab chiqarish sohasida yaratilgan ijtimoiy mahsulotning taqsimlanishi, qayta taqsimlanishi va iste'moli amalga oshadi.

Buxgalteriya hisobining predmeti xo'jalikning ayrim uchastkalardagi ijtimoiy mexnat sarflaridir, degan da'volar xam mavjud edi. Lekin bu ta'rif xam to'g'ri emas. Eng avvalo xo'jalik faoliyati fakat mexnat sarflari bilan cheklanmaydi: xo'jalik jarayonlari, shuningdek ijtimoiy mahsulotning harakati bilan tavsiflanadi. Undan tashqari, ijtimoiy mexnat sarflari buxgalteriya hisobida bevosita umuman aks ettirilmaydi. Ular kiymat shaklida xo'jalik mablag'larining xar xil turlari va resurslarining harakati sifatida kursatiladi. Ijtimoiy mexnat sarflari ustidan bevosita kuzatuv tezkor va eng muximi,

buning uchun uziga xos kursatkichlarga ega bulgan statistika hisobi tomonidan olib boriladi.

Ijtimoiy mahsulotni takror ishlab chiqarishdan tashqari buxgalteriya hisobida ishlab chiqarish kuchlari va ishlab chiqarish munosabatlarini takror ishlab chiqarish xam aks ettiriladi. Ishchi kuchini takror ishlab chiqarish buxgalteriya hisobida shu ishchi kuchini tayyorlash bilan borlik bulgan xar xil xarajatlarni xamda ish xaki va xar xil turdagi xo'jaliklar daromadlarini ko'rinishidagi mablag'lar harakatini hisoblab topish yo'li bilan kamrab olinadi. Ishchi kuchini tayyorlash xarajatlari, ish xakini tulash va xo'jaliklarning daromadlarini taksimlash moddiy kiymatliklar va pul mablag'larini sarflashni anglatadi. Ishlab chiqarish munosabatlarini takror ishlab chiqarish buxgalteriya hisobida mulkchilikning xar xil shakllaridagi korxonalar fondlarining mavjudligi va harakatini aks ettirgan xolda kayd kilinadi. Bux-galteriya hisobi takror ishlab chiqarish jarayonida ularning uzgarishini kursatib, mulkning rivojlanishini tavsiflaydi va shu bilan ishlab chiqarish munosabatlarini takror ishlab chiqarish xakida zarur kursat-kichlarni beradi.

Xulosa. Yuqoridagi barcha ta'riflar buxgalteriya hisobiga nisbatan amaliy faoliyat sifatida tegishlidir. Ularda buxgalteriya hisobi aks ettiradigan obyektlarning tavsifi beriladi. Buxgalteriya fanining predmeti -buxgalteriya hisobining o'zi, ya'ni uning qo'llanish usullari, texnikasi, shakllari va tashkil qilinishi bilan bog'liq masalalardir. Chunki buxgalteriya hisobi haqidagi fan, uni yanada takomillashtirish yo'llarini aniqlash maqsadida, buxgalteriya hisobini yuritish amaliyotini o'rganadi. Buxgalteriya hisobining predmetini o'rganishda uning tarixiy xususiyatini e'tiborga olish zarur. Buxgalteriya hisobi predmetining mazmuni turli iqtisodiy tuzumlarda bir xil bo'lmaydi. Bu mazmunning o'zgarishi bir tuzumdan boshqasiga o'tish, mulkchilik shakllarining o'zgarishi bilan bevosita bog'liqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1 Buxgalteriya hisobi: Darslik / A.A. Karimov, J.E. Kurbanbayev, S.A. Jumanazarov; - T.: "Iqtisod-Moliya", 2019. 624 b

2 Urazov K.B. Buxgalteriya hisobi va audit. Toshkent - 2004.

3. 5-son BHMS “Asosiy vositalar”

4 Bakiyeva X., Rizayev N. Buxgalteriya hisobi nazariyasi. Masalalar to‘plami. -T.: TMI, 2007 y

5 Raxmonov Sh. Investitsiyalar buxgalteriyasi va moliyaviy boshqaruv asoslari. – Toshkent: “Fan va taraqqiyot” ,2019.

6 Xolbekov R.O. Buxgalteriya hisobi nazariyasi. Darslik. - T.: Cho‘lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 201 ly.